Shuningdek, qishloq xo'jaligi faoliyati hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirishda, biologik aktivlarni tan olish, baholash, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining yetarli emasligi ham asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu esa, tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan deyarli tadqiq qilinmagan. Ba'zi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida MHXS asosida qishloq xo'jaligi faoliyati hisobini takomillashtirishning ayrim jihatlarini yoritib berilgan xolos. Xususan, iqtisodchi olim B.Yu.Menglikulov^[3] tomonidan chorvachilikda biologik aktivlarni tan olish va hisobini tashkil etish hamda boshqaruvning axborot ta'minotidagi ayrim muammolar tadqiq qilib o'rganilgan. Biroq, iqtisodchi olim tomonidan biologik aktivlarni tan olish, baholash tartibi, baholashda foydalaniladigan ma'lumot manbalari, baholash usullari, shu jumladan, dastlabki tan olishda va hisobot davrining oxirida haqqoniy qiymatda baholash masalalari tadqiq qilib o'rganilmagan.

Iqtisodchi olim F.T.Temirov ta'kidlashicha, "Mamlakatimizda buxgalteriya hisobining milliy standartlarida (1-BHMS, 4-BHMS, 5-BHMS, 21-BHMS) "Biologik aktivlarni hisobga olish" bo'limlari ishlab chiqilgan, biologik aktivlarni hisobga olish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Biroq ko'plab tashkiliy va uslubiy muammolar hal etilmadi. Xususan, 5-sonli "Asosiy vositalar" biologik aktivlarni hisobga olish, ya'ni ko'p yillik daraxtlar, ishchi va mahsuldoq hayvonlarni, shuningdek, 4-BHMSda o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olishning uslubiy jihatlarini bayon etilgan. Lekin, aynan ularni biologik aktiv, xususan, biologik aktivlarni baholash, ularning sintetik va analitik hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarda qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish bayon etilmagan"^[4].

Iqtisodchi olim S.N.Tashnazarovning yozishicha, "MHXS'larga o'tish uchun faol bozor shakllangan bo'lishi kerak. MHXS'lari obyektlarni adolatli baholash tizimiga asoslanadi. Shuning uchun baholash mexanizmlari rivojlantirish zaruriyati mavjud. Masalan, zaxiralar sof sotish qiymati yoki tannarxidan eng kichigi bo'yicha baholanadi. Ko'chmas mulk, mashina va asbob-uskunalar hamda moliyaviy aktivlar adolatli qiymati bo'yicha baholanadi. Bu obyektlar faol bozor bo'lgandagina adolatli baholanadi"^[5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan farqli ravishda ko'plab xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan MHXS asosida biologik aktivlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish, xususan ularni haqqoniy qiymatda baholash masalalari tadqiq qilib o'rganilgan. Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlar Rubén Dario Marrufo Garcia va Abel Maria Cano Moraleslar "Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan, Kolumbiya qishloq xo'jaligi korxonalari uchun moliyaviy hisobotlarda biologik aktivlarni haqqoniy qiymatda hisobga olishda, boshqa bozorlar orasida rejalashtirilgan bozorlarda shakllangan haqqoniy sotish bahosidan vositachilik xarajatlari, soliqlar va yig'implarni chegirgan holda hisobga olish muhim ahamiyatga ega"^[6] deb ta'kidlagan holda biologik aktivlarni hisobga olish tizimlari va 41-son BHXS qo'llanilishini ko'rsatib o'tishgan.

Latviyalik iqtisodchi olimlar Iluta Arbidane va Iveta Mietulelar^[7] dastlabki tan olish vaqtidagi biologik aktivning haqqoniy qiymatini, biologik aktivlarni tan olish vaqtidagi bozor qiymati hamda biologik aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini, biologik aktivlarni tan olish vaqtidagi haqqoniy qiymati sifatida tasniflashadi. Fikrimizcha, biologik aktivlarni tan olish vaqtidagi bozor qiymati bu biologik aktivning haqqoniy qiymati sifatida hamda undan sotish xarajatlarini chegirandagi qiymati, biologik aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymat sifatida tan olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bilan birga, iqtisodchi olim L.F.Sitdikova^[8] qishloq xo'jalik korxonalarida biologik aktivlar hisobini takomillashtirish bo'yicha olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, biologik aktivlarni haqqoniy qiymatda hisobga olish algoritmini taklif etadi. Ushbu taklif etilgan algoritmda belgilangan tashkiliy va iqtisodiy tadbirlardan biri biologik aktivlarni haqqoniy qiymat bo'yicha buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'lib, u qishloq xo'jaligi tashkilotlari faoliyati to'g'risida eng ishonchli va to'liq axborot olish imkonini beradi deb ta'kidlaydi. Fikrimizcha, taklif etilgan algoritmda belgilangan mazkur tadbirni, biologik aktivlarning haqqoniy qiymatidan sotish xarajatlarini chegirgan holda buxgalteriya hisobida aks ettirish deb belgilanishi maqsadga muvofiq.

Iqtisodchi olim N.N.Agoshkova^[9] ham biologik aktivlarni tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, iqtisodchi olim 41-son BHXSga muvofiq faol bozor mavjud va mavjud bo'lmaganda biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash algoritmini tavsiya qiladi. Uning tavsiyasiga ko'ra, biologik aktivlar bilan bog'liq operatsiyalar faol bozorda amalga oshirilsa, aktivning haqqoniy qiymati uning ushbu bozordagi qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanishi kerak. Faol bozor mavjud bo'lmagan taqdirda, haqqoniy qiymat biologik aktivning joriy haqiqiy narxidan, shu kabi biologik aktivlar bo'yicha oxirgi bitim narxidan, semizligi, vazni, hayvon zoti, meva ekinlarining navlari va boshqa ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.



Iqtisodchi olim L.I.Kulikova esa, “41-son BHXS biologik aktiv yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotining sotish xarajatlarini hisobga olmagandagi haqqoniy qiymatini aniqlashning bir qancha muqobil variantlarini ko‘rib chiqadi” [10] deb ta’kidlagan holda, haqqoniy qiymatni aniqlashda biologik aktiv yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotining hozirgi holati va joylashgan joyida faol bozor mavjud va mavjud bo‘lmagan holatlar bo‘yicha tasniflaydi va tavsiflab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalasini tadqiq qilishda ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to‘plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo‘yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va davr oralig‘ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Albatta, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning biologik aktivlarni tan olish va baholash bo‘yicha yondashuvlarini e’tirof etgan holda 13-son “Haqqoniy qiymatni baholash” nomli MHXSga murojaat qiladigan bo‘lsak, unda “Mazkur MHXS haqqoniy qiymatni baholash sanasida bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishdan olinishi yoki majburiyatni o‘tkazish uchun to‘lanishi mumkin bo‘lgan narx sifatida ta’riflaydi” [2] deya tavsiflangan. Demak, yuqoridagi ta’rifga asosan biologik aktivlarning haqqoniy qiymati bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi odatdagi operatsiyada biologik aktivni sotishdan olinishi mumkin bo‘lgan narxdir. Mazkur narx turli baholash usullaridan foydalanilgan holda shakllantiriladi. Bunda tadbirkorlik subyekti mavjud sharoitlarda o‘rinli bo‘ladigan haqqoniy qiymatni baholash uchun yetarli ma’lumot bo‘lgandagina baholash usullaridan foydalanishi lozim. Shu sababli, haqqoniy qiymatni baholashda o‘rinli, kuzatiladigan ma’lumot manbalaridan foydalanishni maksimallashtirgan holda kuzatilmaydigan ma’lumot manbalaridan foydalanishni minimallashtirishi lozim.

13-son MHXSda belgilangan haqqoniy qiymat iyerarxiasiga muvofiq haqqoniy qiymatni baholash hamda yoritib beriladigan ma’lumotlarda izchillik va qiyosiylikni ta’minlash maqsadida biologik aktivlarni haqqoniy qiymatini baholashda foydalaniladigan ma’lumot manbalarini ham uchta darajali toifaga ajratish mumkin:

- 1-darajali. Tashkilot baholash sanasida foydalanishi mumkin bo‘lgan bir xil biologik aktivlar bo‘yicha faol bozorlardagi (tuzatilmagan) narxlar;
- 2-darajali. 1-darajaga kiritilgan narxlardan tashqari, biologik aktivlar bo‘yicha kuzatiladigan bevosita yoki bilvosita ma’lumot manbalari;
- 3-darajali. Biologik aktivlar bo‘yicha kuzatilmaydigan ma’lumotlar.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, respublikamizda biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholashda foydalanish mumkin bo‘lgan, bir xil biologik aktivlar bo‘yicha faol bozorlardagi (tuzatilmagan) narxlar, ya’ni 1-darajali ma’lumot manbalari kuzatilmaydi. Ya’ni, bir xil biologik aktivlar bo‘yicha faol bozor shakllanmagan. Shu sababli ham, yuqorida faol bozor shakllangan bo‘lishi lozimligi ta’kidlab o‘tgan edik. Chunki, bir xil biologik aktivlar uchun faol bozor bo‘lgandagina biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholash uchun narxdan tuzatishsiz foydalaniladi. Bu esa, biologik aktivni haqqoniy qiymat asosida baholashning eng ishonchli dalilini ta’minlaydi. Shu bois, bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari tomonidan biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda 2-darajali ma’lumot manbalaridan foydalanishmoqda. Mazkur ma’lumot manbalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- faol bozorlardagi o‘xshash biologik aktivlar bo‘yicha narxlar;
- faol bo‘lmagan bozorlardagi bir xil yoki o‘xshash biologik aktivlar bo‘yicha narxlar;
- biologik aktivlar bo‘yicha kuzatiladigan narxlardan tashqari ma’lumot manbalari.


3-darajali ma’lumot manbalari, biologik aktivlar bo‘yicha kuzatilmaydigan ma’lumot manbalari hisoblanadi. Shu bois, tadbirkorlik subyekti muayyan holatlarda mavjud bo‘lgan eng yaxshi ma’lumotlar asosida, o‘zida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan biologik aktivlar bo‘yicha kuzatilmaydigan ma’lumot manbalarini belgilab olishi zarur.

Shunday qilib, tadbirkorlik subyekti biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholashda qo‘llash uchun yetarli ma’lumot mavjud bo‘lgan baholash usullaridan foydalanishlari kerak bo‘ladi. Bugungi kunda keng qo‘llaniladigan baholash usullari bozor yondashuvi, sarf yondashuvi va daromad yondashuviga asoslangan usullar hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval: 13-son MHXSga muvofiq haqqoniy qiymatni baholashda qo'llaniladigan baholash usullari¹

№	Baholash usuli	Tavsifi
1	Bozor yondashuvi	Bu yondashuv bir xil yoki qiyosiy (o'xshash) aktivlar va aktivlar guruhini qamrab oladigan bozor operatsiyalari orqali yuzaga keladigan narxlar va boshqa o'rinli ma'lumotlardan foydalanadi
2	Sarf yondashuvi	Bu yondashuv aktivning xizmat ko'rsatish quvvatini almashtirishda joriy davrda talab etilishi mumkin bo'lgan summadir.
3	Daromad yondashuvi	Bu yondashuv kelgusi summalarni yagona joriy (diskontlangan) summaga aylantiradi. Bunda haqqoniy qiymatni baholash ushbu kelgusi summalar bo'yicha joriy bozor kutishlarini aks ettiradi.

Monografik tadqiqot natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligi faoliyatida foydalanilayotgan aktivlarni, xususan biologik aktivlarni haqqoniy qiymatini baholashda bozor yondashuviga asoslangan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu sababli, biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda bozor yondashuviga asoslangan quyidagi baholash usullaridan foydalanishni taklif etamiz (1-rasm).

1-rasm: Biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda bozor yondashuviga asoslangan baholash usullari²

Yuqoridagi 1-rasmda keltirilgan bozor yondashuviga asoslangan baholash usullaridan foydalangan holda biologik aktivlarni haqqoniy qiymatini aniqlashni quyidagi amaliy yondashuvlar asosida ko'rsatib o'tmoqchimiz:

Aytaylik, tadbirkorlik subyekti qishloq xo'jaligi faoliyatida foydalanilayotgan biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholashda quyidagi usullardan foydalanadi:

- faol bozordagi bozor narxlar. Bu usuldan biologik aktivlar bo'yicha operatsiyalar uzluksiz ravishda narxlash ma'lumotlarini ta'minlash uchun yetarli davriylik va hajmda sodir bo'ladigan bozordagi bozor narxlar mavjud bo'lganda foydalaniladi. Masalan, tadbirkorlik subyekti qishloq xo'jaligi faoliyatida yetishtirilgan tovar baliq hajmi 1500 kg ni tashkil qildi. 1 kg tovar baliqning faol bozorda narxi 30 000 so'm. Tadbirkorlik subyektida yetishtirilgan tovar baliqni sotish bilan bog'liq kutilayotgan xarajatlar (transport xarajatlari, sotish bozorida to'lanadigan yig'im va boshqa to'lovlar) 5 000 000 so'm sifatida baholandi. Mazkur holatda, tadbirkorlik subyektida yetishtirilgan jami tovar baliq hajmining haqqoniy qiymati

$$40\,000\,000 \text{ ((1500} \times 30\,000) - 5\,000\,000) \text{ so'mga teng bo'ladi.}$$

- o'xshash aktivlarning bozor narxlar. Bu usulda faol bozordagi o'xshash aktivlar bo'yicha narxlardan, agarda faol bozor mavjud bo'lmasa, mavjud bozorlardagi bir xil yoki o'xshash aktivlar bo'yicha narxlardan foydalaniladi. Masalan, tadbirkorlik subyektida 100 bosh simmental zotli sigirlar mavjud. Mazkur biologik aktivlar uchun faol bozor mavjud emas. Ammo, yaqinda mavjud bozorda shunga o'xshash xususiyatga ega bo'lgan sigirlar boshiga 25 000 000 so'mdan sotildi. Sigirlarni bozorda sotish bilan bog'liq kutilayotgan xarajatlar 20 000 000 so'mga baholandi. Ushbu vaziyatda, 100 bosh simmental zotli sigirlarning haqqoniy qiymati

$$2\,480\,000\,000 \text{ ((100} \times 25\,000\,000) - 20\,000\,000) \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

1 13-son "Haqqoniy qiymatni baholash" MHXSga muvofiq muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.




Biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash bo'yicha yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Shuni aytib o'tish joizki, tadbirkorlik subyekti biologik aktivlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda haqqoniy qiymatni baholashda bir yoki bir nechta baholash usullaridan foydalanishlari mumkin. Chunki, biologik aktivlar bo'yicha faol bozor mavjud bo'lganda, undagi narxlar orqali baholashdagina yagona baholash usulidan foydalanish o'rinli bo'ladi. Shu bois, biologik aktivlarni baholash sanasida qo'llanilgan mulohazalar turlicha bo'lishi mumkin. Bu esa, biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholashda quyidagilarni aniqlashni talab etadi:

- baholashning predmeti bo'lgan muayyan biologik aktivning mavjudligi;
- biologik aktivni haqqoniy qiymatini baholash uchun o'rinli bo'lgan baholashning dastlabki sharti (uning eng to'g'ri va samarali foydalanilishiga mos tarzda);
- biologik aktiv uchun asosiy (yoki eng manfaatli) bozor mavjudligi;
- biologik aktivlarni haqqoniy qiymatda baholash uchun o'rinli baholash usuli yoki usullari.

Tadbirkorlik subyektida biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholash sanasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan mulohazalardan kelib chiqqan holda biologik aktivlarning har bir turi (guruhi) bo'yicha o'rinli baholash usulini tanlaydi. Tanlangan o'rinli baholash usullari va ularni ishlab chiqishda foydalaniladigan ma'lumot manbalarini tadbirkorlik subyekti o'zining hisob siyosatida aks ettirishi hamda moliyaviy hisobotda mazkur ma'lumotlarni yoritib berishi lozim.

Albatta, iqtisodchi olimlarning ilmiy-uslubiy asarlarida va monografik tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan tadbirkorlik subyektlarida biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini baholash metodikasi bo'yicha yondashuvlar keltirilgan. Biroq, keltirilgan yondashuvlar asosan biologik aktivlarni dastlabki tan olish vaqtida biologik aktivlarni haqqoniy qiymatda baholanishi bo'yicha yondashuvlar hisoblanadi. Shuningdek, ayrim iqtisodchi olimlarning ilmiy-uslubiy asarlari sharhi shuni ko'rsatadiki, biologik aktivning haqqoniy qiymati bilan uni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymati bir xil tushuncha sifatida yondashilgan. Vaholanki, bu tushunchalar bir-biridan farqlanadi. Biologik aktivning haqqoniy qiymati uni baholashda foydalaniladigan ma'lumot manbalari asosida o'rinli baholash usuli orqali baholangan qiymat hisoblanadi. Biologik aktivni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymat esa, biologik aktivning haqqoniy qiymatidan uni sotish bilan bog'liq kutilayotgan xarajatlarni chegirish asosida shakllantiriladi hamda moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanuvchilarga mazkur qiymat bo'yicha ma'lumotlar oshkor qilinadi. Shu o'rinda, biologik aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini shakllantirishning quyidagi modelini taklif etamiz (2-rasm).



2-rasm: Biologik aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini shakllantirish modeli³

Endi, ushbu model yordamida biologik aktivlarning moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini shakllantirish tartibini quyidagi amaliy misol yordamida yoritib bermoqchimiz. Aytaylik, tadbirkorlik subyekting chorvachilik tarmog'ida 100 bosh yirik shoxli chorva mollari mavjud. Ushbu chorva mollarinin haqqoniy qiymati 2 000 000 000 so'm sifatida baholangan. Chorva mollarni bozorda sotish bilan bog'liq kutilayotgan xarajatlar quyidagicha baholandi:

3 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



- transport xarajatlari – 20 000 000 so'm;
- sotish bozorida to'lanadigan yig'im – 10 000 000 so'm.

Mazkur vaziyatda, yuqoridagi modelga asoslangan holda tadbirkorlik subyekti biologik aktivi bo'lgan chorva mollarining moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini shakllantiradigan bo'lsak, u 1 970 000 000 (2 000 000 000 – (20 000 000 + 10 000 000)) so'mni tashkil qiladi. Demak, tadbirkorlik subyekti 100 bosh yirik shoxli chorva mollari qiymatini biologik aktiv sifatida moliyaviy hisobotda 1 970 000 000 so'm sifatida aks ettirishi lozim.

Fikrimizcha, biologik aktivlar qiymatining mazkur model asosida moliyaviy hisobotda aks ettirilishi, biologik aktivlar bo'yicha axborotning to'g'ri taqdim etilishini va u bo'yicha moliyaviy hisobotda ma'lumotlarni yoritib berish axborotdan foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

XULOSA

Shunday qilib, biologik aktivlarni tan olish va baholashning uslubiy asoslarini tadqiq qilib o'rganish natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

- xalqaro va milliy tajribalar asosida biologik aktivlarni aktiv sifatida tan olish shartlari, haqqoniy qiymat, bozor ishtirokchilari, operatsiya, aktiv yoki majburiyat va narx atamaları tasniflangan holda tavsiflab berildi. Bu albatta, yuqoridagi tan olish shartlari va atamalarni amalda to'g'ri talqin qilgan holda qo'llash imkonini beradi;
- 13-son MHXSga muvofiq biologik aktivlarni haqqoniy qiymatini baholashda hamda yoritib beriladigan ma'lumotlarda izchillik va qiyosiylikni ta'minlash maqsadida foydalaniladigan ma'lumot manbalari toifalarga ajratildi va ulardan foydalanish tartibi asoslab berildi;
- haqqoniy qiymatni baholashda qo'llaniladigan baholash usullari tavsiflab berildi hamda biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda bozor yondashuviga asoslangan baholash usullari taklif etildi. Mazkur taklif etilgan usullardan foydalangan holda biologik aktivlar haqqoniy qiymatini baholash tartibi amaliy ma'lumotlar asosida ochib berildi. Shuningdek, tadbirkorlik subyekti baholash sanasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan mulohazalardan kelib chiqqan holda biologik aktivlarning har bir turi (guruhi) bo'yicha o'rinli baholash usullarini tanlashi hamda ularni ishlab chiqishda foydalaniladigan ma'lumot manbalarini hisob siyosatida aks ettirishi va moliyaviy hisobotda mazkur ma'lumotlarni yoritib berishi lozimligi asoslandi;
- biologik aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan qiymatini shakllantirish modeli taklif etildi. Bizningcha, mazkur model biologik aktivlar qiymati to'g'risida axborot moliyaviy hisobotda to'g'ri taqdim etilishini va foydalanuvchilarga taqdim etilgan moliyaviy hisobotda biologik aktivlar to'g'risida yoritilgan axborotlar tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 41-son "Qishloq xo'jaligi" Buxgalteriya hisobi xalqaro standarti (BHXS). <https://lex.uz/uz/docs/6312360> (24.01.2024)
2. 13-son "Haqqoniy qiymatni baholash" Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) <https://lex.uz/uz/docs/6312360> (24.01.2024)
3. B.Yu.Menglikulov Chorvachilikda biologik aktivlarni saqlash xarajatlari hisobi, tannarx hisoblash va auditi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. – T.: 2023. – 29 b.
4. Temirov F.T. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2021. – 22 b.
5. S.N.Tashnazarov O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishdagi muammolar va hal qilish yo'llari. "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish va xalqaro tajribani o'zbekistonda qo'llashning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy - amaliy anjuman maqolalar to'plami. Toshkent – "Iqtisodiyot" – 2022. -335 b.
6. Rubén Dario Marrufo Garcia, Abel Maria Cano Morales. Accounting treatment of biological assets and agricultural products. "Visión de Futuro" Año 18, Volumen Nº 25 Nº 2, Julio – Diciembre 2021 – Pág 63 – 86.
7. Iluta Arbidane, Iveta Mietule. Problems and solutions of accounting and evaluation of biological assets in Latvia. Entrepreneurship and Sustainability Issues, 2018, 6 (1), pp.10-22. 10.9770/jesi.2018.6.1(1). hal-01947873.
8. Ситдикова Л.Ф. Развитие учета биологических активов в сельскохозяйственных организациях. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Нижний Новгород – 2013. 12-14 ст.
9. Агошкова Н.Н. Совершенствование учета воспроизводства внеоборотных биологических активов в сельском хозяйстве // Международный бухгалтерский учет. 15 (261) – 2013. – 23 ст.
10. Куликова Л.И. Международные стандарты финансовой отчетности. Нефинансовые активы организации: учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2012. – 331 с.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.